

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2022- yil 20- iyul kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
45 000 so'mdan 77 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (45 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiy tadbirkorlar rastalarida 77 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 54 000 so'mga sotilmoqda.



Qo'y go'shti
55 000 so'mdan 89 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (55 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori", Navoiy shahrining "Saxovat" bozoridagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da (xususiy tadbirkorlar rastalarida 89 000 so'm) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorda qo'y go'shtini minimal 58 000 so'mga ham xarid qilish mumkin.



Kartoshka

2 000 so‘mdan 7 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Farg‘ona shahrining “Farg‘ona shahar markaziy dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Qo‘yliq dehqon bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan yirik bo‘lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 000 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (7 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozordagi arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan kartoshkani minimal 2 500 so‘mdan xarid qilish mumkin.



Piyoz

3 000 so‘mdan 8 500 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”da (3 000 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori” va “Oloy dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (8 500 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda piyozni minimal 4 500 – 5 500 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

1 300 soʻmdan 6 000 soʻmgacha (kg)


Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga koʻra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori” va Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da (1 300 soʻm) qayd etilgan. Shuningdek, mazkur bozorlarda sabzini maksimal 3 000 - 3 500 soʻmga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da 6 000 soʻm darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorda sabzining minimal narxi 2 500 soʻmni tashkil etdi.

Tuxum

7 000 soʻmdan 15 000 soʻmgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga koʻra, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Eski joʻva dehqon bozori”, “Qoʻyliq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (7 000 soʻm).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 15 000 soʻm). Shuningdek, mazkur bozorda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 8 000 soʻmni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 22 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori” (“Nukus-2” navli guruch, 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da 22 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorlarda guruchning minimal narxi 6 000 – 8 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

15 600 so‘mdan 30 000 so‘mgacha (litr)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 15 600 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozordagi xususiy tadbirkorlar rastalarida o‘simlik yog‘ini 22 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 30 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda o‘simlik yog‘ini minimal 18 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Shakar

11 000 so‘mdan 18 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori” va Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da arzonlashtirilgan rastalarda (11 000 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da (18 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorda shakarni minimal 12 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida**

MA’LUMOT*

2022- yil 20- iyul holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	45000	55000	2500	3000	1300	8000	5000	18000	12000
		max	68000	68000	5500	4500	3500	11000	18000	24000	15000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	50000	65000	3000	3500	3000	8000	7500	18500	12000
		max	70000	80000	5000	5000	3500	11000	13000	24000	15000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	59000	58000	3200	3500	2000	8000	6500	18000	11000
		max	70000	65000	5000	5500	3000	11000	19000	24000	14000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	2500	4500	1500	9000	7500	16000	12000
		max	70000	70000	4000	5500	3000	10000	17500	24000	15000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	65000	2700	3000	2500	8500	6000	17000	12000
		max	65000	70000	3000	5500	2600	9000	12000	22000	14000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	55000	55000	3000	3500	2000	7000	6000	17000	13000
		max	68000	67000	4000	5600	3000	10000	12000	24000	16000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	55000	75000	2000	3300	1300	7000	7000	15600	13000
		max	65000	75000	4000	6000	3000	10000	17000	22000	16000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	56000	66000	3200	4500	2400	8500	7000	16000	13000
		max	65000	72000	3750	5600	3200	11000	12000	23000	15500
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	65000	72000	3000	3500	2000	8000	6000	17000	11000
		max	70000	77000	4500	6000	3000	10000	18000	23000	15000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	50000	65000	2500	3000	1500	7500	6000	16000	12000
		max	70000	80000	4000	5000	3000	11000	15000	22400	15000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	55000	58000	2500	3300	2000	8500	6500	18888	12000
		max	68000	78000	4000	6000	3500	13000	17000	24000	17000
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	55000	70000	3500	5000	2500	9000	8000	20000	17000
		max	70000	70000	4000	6000	4000	12000	20000	24000	17000
13.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	55000	65000	2000	3800	2000	9500	8000	16500	13000
		max	70000	76000	3500	6000	3300	12000	16000	22500	15000
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	60000	75000	2000	3500	1300	7000	6000	20000	16000
		max	70000	80000	4000	6000	2500	11000	22000	25000	16000
15.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	53000	60000	2500	4500	2500	7000	6000	18600	12000
		max	70000	78000	4500	7500	4000	12000	16000	23000	12000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	4500	3000	9000	8000	18000	12000
		max	75000	88000	6000	8000	5500	14000	17000	30000	18000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	54000	58000	2300	5500	2000	8000	7500	19447	12000
		max	77000	89000	4800	8500	5000	15000	18000	25000	14000
18.	Toshkent shahar “Qo'yliq dehqon bozori”	min	49500	60000	2000	3500	2000	7000	6000	18500	12000
		max	70000	82000	5000	6000	4000	12000	19000	25000	16000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	50000	58000	3500	3500	2500	9000	8000	18055	12000
		max	70000	85000	7000	7000	6000	14000	22000	30000	12000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.